

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**ARIPJANOVA MAXFUZA AKMALOVNA**

**KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA MAXSUS FANLARNI  
O'QITISHDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV-TASAVVUR  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH  
(yengil sanoat yo'nalishlari misolida)**

**13.00.05 – Kasb–hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on Pedagogical Sciences**

**Aripjanova Mahfuza Akmalovna**

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish (yengil sanoat yo‘nalishlari misolida).....	3
--	---

**Арипжанова Махфузा Акмаловна**

Развитие коммуникативно-образных компетенций учащихся при преподавании специальных дисциплин в организациях профессионального образования (на примере направлений легкой промышленности).....	23
--	----

**Aripzhanova Mahfuza Akmalovna**

Development of Students’ communicative and imaginative competencies in teaching specialized subjects in vocational education institutions (based on the example of light industry fields).....	47
--	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....	53
------------------------------	----

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**ARIPJANOVA MAXFUZA AKMALOVNA**

**KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA MAXSUS FANLARNI  
O'QITISHDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV-TASAVVUR  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH  
(yengil sanoat yo'nalishlari misolida)**

**13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi buzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PHD/Ped3748 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Kasbiy ta'limi rivojlantirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ipitvet.uz](http://www.ipitvet.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lif portalı ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**To'xtayeva Zebo Sharifoyna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ismailova Zuxra Karabayevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Qo'ysinov Odil Almurotovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor


**Yetakechi tashkilot:**


**Toshkent Davlat Texnika Universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Kasbiy ta'limi rivojlantirish instituti huzuridagi DSc 02/2025.27.12.Ped.01.01-raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 27 01 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy Tel:(+99871) 246-92-17; faks:(+99871) 246-92-17; e-mail: [pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz](mailto:pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Kasbiy ta'limi rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (138 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy Tel:(+99871) 246-92-17; faks:(+99871) 246-92-17).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 07 01 kuni tarqatildi.  
(2026 yil 07 01 dagi 15 raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**R.X. Djurayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., akademik

  
**S.Y. Ashurova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash imly kotibi, p.f.d., professor

  
**X.Sh. Kadirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor



## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasi bugungi kunda o‘quv jarayonida va mehnat bozorida talab qilinadigan muhim ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Bu global muhitda madaniyatlararo muloqotni samarali amalga oshirishga yordam beradi. Xususan, professional sohada o‘z fikrini ravon, aniq va diplomatik tarzda ifodalash qobiliyati, jamoada ishlash, tinglash va boshqa odamlarning fikrini inobatga olish, ishbilarmonlik etikasi va xulq-atvor normalarini bilish, raqamli muloqot vositalaridan (masalan, elektron pochta, onlayn platformalar, videokonferensiyalar) foydalanish ko‘nikmalar, turli muammolarni muhokama qilish va yechim topish jarayonida muloqotni boshqarish ko‘nikmalar bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, professional vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish va mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarni nafaqat professional faoliyatga, balki shaxsiy rivojlanishga ham tayyorlaydi.

Dunyo mamlakatlarida kasbiy ta’lim tizimida o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyasini rivojlantirish borasida turli yondashuvlar mavjud. AQSHda ta’lim tizimida o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, fazoviy tasavvur hamda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratiladi. Mazkur ta’lim tizimida debatlar, prezentatsiyalar va jamoaviy loyihalar orqali bu ko‘nikmalarни mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratiladi. Onlayn ta’lim platformalari va raqamli vositalar muloqot qilishni osonlashtiradi. Germaniyada kasbiy ta’lim dual tizim asosida qurilgan bo‘lib, o‘quvchilar nazariy bilimlarni mактабда, amaliyotni esa ish joyida olib boradilar. Bu kommunikativ-tasavvur kompetensiya ko‘nikmalarini real ish muhitida rivojlantirishga imkon beradi. Yaponiya ta’lim tizimida esa kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarni rivojlantirishda jamoaviy ish va tashkilotchilikka urg‘u beriladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini hisobga olib, bugungi kunda kasbiy ta’limning oldida turgan dolzarb muammolardan biri bu ilm-fan yutuqlarini amaliyotga samarali tatbiq etish orqali mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish hisoblanadi. Yengil sanoat yo‘nalishlarida sifatli kasbiy ta’limni amalga oshish o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog‘liq. Bu vaziyat, avvalambor, kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘qitilayotgan maxsus fanlar bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va malakalar hamda ularning negizida shakllanadigan bir qator kompetensiyalarning egallanishi bilan bog‘liq. Shuning uchun kasbiy ta’lim tashkilotlarida maxsus fanlarni o‘qitilishiga alohida urg‘u berilishi lozim. Kasbiy ta’limda maxsus fanlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biri kommunikativ-tasavvur qobiliyatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Mazkur intellektual sifat nafaqat maxsus fanlarni o‘zlashtirilishida, balki inson tomonidan atrofdagi vogelikni to‘g‘ri shaklda anglanishi va uning tomonidan turli xil kasblarni egallanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sон farmoni, 2024 yil 16-oktyabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash

tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-sun farmoni, 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-sun farmoni hamda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-sun qarori, 2019 yil 28-maydagi “Respublika hududlarida tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va aholi bandligini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4341-sun qarori, 2019 yil 16 sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4453-sun qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatlarida zaruriy “kompetensiya”lar va “kompetentlik”ning nazariy-amaliy jihatari R.X.Djurayev, A.R.Xodjabayev, N.A.Muslimov, Z.K.Ismailova, S.Yu.Ashurova, K.Abdullayeva, M.B.Urazova, O.A.Qo‘ysinov, B.S.Nuriddinov, Sh.S.Sharipov, D.O.Ximmataliyev, L.V.Golish, N.N.Karimova, U.X.Mingboyev, J.R.Turmatov, Y.R.Najmuddinova kabi olimlarning ishlarida tadqiq qilingan<sup>1</sup>.

O‘quvchilarda kompetensiya va kompetentlik tuchunchalarning mazmun-mohiyatini o‘rganish va tahlil qilish, uni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha xorijiy olimlardan E.F.Zeyer, R.Boyasis, K.Kameron, R.Kuinn, R.Marr, Dj.Raven, S.Uddet, S.Xoliford kabi qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida mazkur sifatning quyi darajada rivojlanganligi ta’kidlab o‘tiladi. Nazariya va amaliyotdan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, kasbiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarda tasavvurning rivojlantirilishi bilan bog‘liq masalaning yetarli darajada ko‘rib chiqilmaganligi, yengil sanoat yo‘nalishi bo‘yicha maxsus fanlardan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilishiga mazkur intellektual xususiyatning ta’sirini tizimli kompleks tahlilida kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi.

MDH olimlaridan S.V.Bulanov, G.M.Grinberg, T.S.Komissarova, M.V.Litvinenko, S.G. Grigorev, G.F.Grebenshikov kabi olimlar turli davrlarda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetentsiyalarini rivojlantirish bilan shug‘ullangan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Djuraev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010. 87 b.; Xodjaboev A.R. Учебно-методический комплекс подготовки учителей трудового обучения. // Метод.реком. – Т.: UzNIIPI,1989. 93 с.; Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. //Diss. ... ped. fan. dokt. – Т., 2007. 315 б.; Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss. ... ped. fan. nom. – Т., 2000. 186 б.; Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. // Diss.....pedagogika fanlari doktori (DSc). – Т., : 2019., Nuriddinov B.S. Kasb ta’limi o‘qituvchilari malakasini oshirishda faol o‘qitish metodlaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi. Dissertatsiya. UDK 378 (575.1). Т. 2002. , Himmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (Texnika oliv ta’lim muassasalarining “Kasb ta’limi” yo‘nalishlari misolida). Avtoreferat. Toshkent – 2018. – В 15.,

<sup>2</sup> Григорьев С.Г. Преемственность в обучении математике учащихся средней школы и студентов экономического вуза. Дис. ... канд. пед. наук. в виде научного доклада. М. 2000г. -Стр. 31., Гребенщикова Г.Ф. Интеграция теории и практики в

Yengil sanoat yo‘nalishi bo‘yicha maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha S.Yu.Ashurova, Z.Sh.To‘xtayeva, N.N.Karimova, S.Yu.Rajabova, D.A.Sayfullayeva, D.F.Djalolova, Sh.S.Samiyeva, B.B.To‘raqulova kabi qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan<sup>3</sup>.

**Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining 38-3-sonli buyrug‘i asosida “25/2021 “Resurs tejovchi texnologiya asosida yangi mato konstruksiyasidan kiyimlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarish” (2021-2025 yy.) mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kasbiy ta’limda maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayonini tashkil qilish komponentlarini hamda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

kasbiy ta’limda yengil sanoat yo‘nalishi bo‘yicha maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-tuzilmaviy modelini takomillashtirish;

kasbiy ta’limda maxsus fanlarni o‘qitishda kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini kollaborativ texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan metodlar asosida takomillashtirish;

kasbiy ta’limda maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishning optimal texnologiyalarini aniqlash hamda ularni tajriba-sinov ishlari orqali tadqiq qilish va pedagogik samaradorligini isbotlash;

**Tadqiqotning obyekti.** Kasbiy ta’limda maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti.** Kasbiy ta’limda maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ- tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishning metod, shakl va vositalari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida mavzuga oid pedagogik, psixologik adabiyotlar, malaka talablari, fan dasturlarini qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, kontentli-tahlil, pedagogik-ijtimoiy (anketa-so‘rov, suhbat, kuzatish) so‘rovnoma va tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, natijalarga matematik va statistik qayta ishlov berish metodlaridan foydalanildi:

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

---

сфере системного образования в России и в информационно-предметной среде. 13.00.01 – Общая педагогика, историческая педагогика и образование. Дис. Доктор пед. наука Москва – 2004. – 272 с.

<sup>3</sup> Ashurova,S.Yu. Yengil sanoat yo‘nalishlari bo‘yicha kichik mutaxassislar tayyorlashda maxsus fanlarni modulli o‘qitishning ilmiy-uslubiy asoslari (“Tikuvchilik ishlab chiqarish” yo‘nalishi misolida).// Dis... ped. fan. nomzodi-T.,:2005., Karimova N.N. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish.// Dis... ped. fan. nomzodi-T.,:2019., Djalolova,F. Oliy ta’lim talabalarida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish modeli.// Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал-2022. Samiyeva Sh.X. Kasb-hunar kollejlari dizayn yo‘nalishlari o‘quvchilarida estetik dunyoqarashni takomillashtirish metodikasi.// Dis... ped. fan. nomzodi-T.,:-2019

kasbiy ta’lim tahkilotlarida o‘quv jarayonini innovatsion axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish komponentlari hamda maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari (kasbiy, metodik va motivatsion) aniqlangan;

o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodika va tashkiliy-tuzilmaviy tizim asosida o‘quv-metodik ta’minotni intensivlashtirishga xizmat qiluvchi mezon va natijaviy bloklarning uzviyligi nazariya va amaliyotning birligini ta’minalash, shuningdek dasturiy maqsadlarga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilgan;

kasbiy ta’limda maxsus fanlarni o‘qitishda kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarining yo‘nalishlari belgilangan va maxsus fanlarni o‘qitishda “Flipped classroom”, “3D metodi”, “Aql charxi”, “Tasavvur”, “Dekompozitsiya”, “Assotsiatsiya”, “SCAMPER” metodlaridan foydalanish bo‘yicha kollaborativ amaliy ko‘rsatmalar hamda mobil ilova ishlab chiqilgan;

maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo‘llash avtomatlashtirilgan visual loyihaviy topshiriqlarni taksonomik (faraz, reja, faoliyat va tahlil) mutanosibligida ishlab chiqilgan hamda o‘quvchilarda kommutikativ-tasavvur kompetensiyalarining shakllanganlik darajalari ta’limni raqamlashtirishga funksional imkon beruvchi baholash mezonlarini kiritish orqali optimallashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan samarali foydalanish uchun o‘qituvchidan sezilarli mehnat talab qilmaydigan, har qanday zamonaviy mobil qurilmalarda yetarlicha sodda va qulay bo‘lgan ilmiy bilimlarni, tasavvur kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanidan mobil ilova ishlab chiqilgan va ta’lim jarayoniga joriy qilingan;

ta’lim maqsadiga erishishni, uning mazmunini ishlab chiqishni, o‘quvchilarni mustaqil ta’lim olishga tayyorlash metodlari va vositalarini ta’minlovchi kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini amalgaloshirish maqsadida “Erkaklar kiyimini tikish texnologiyasi” (O‘zbekiston Respublikasining OO‘MTV 2022 yil 19-iyuldagagi 233-sonli buyrug‘i), “Bolalar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish” (O‘zbekiston Respublikasining OO‘MTV 2022 yil 20-yanvardagi 189-sonli buyrug‘i) va “Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi” (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2024 yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i) nomli o‘quv qo‘llanmalar, “Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi” fanidan uslubiy qo‘llanma yaratilgan;

yengil sanoat yo‘nalishlari o‘quvchilarida kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va uni amalgaloshirish maqsadida “Yengil sanoat yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislik fanlaridan texnik atamalar glossariysi elektron dasturi” (№ DGU 24575 03.05.2023 y.), “Erkaklar kiyimini tikish texnologiyasi” fanidan elektron darslik (№ DGU 41501 22.07.2024 y.) hamda “GLOTHING” nomli modil ilova (№ DGU 55099 09.10.2025 y.) yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** OAK ro‘yxatidagi xorijiy va respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalar, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-

amaliy anjumanlar materiallari, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini innovatsion axborot texnologiyalari asosida tashkil qilish jarayonlari komponentlari aniqlanganligi; maxsus fanlarni o'qitishda o'quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinganligi; o'quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodika va tashkiliy-tuzilmaviy model asosida o'quv-metodik ta'minotni intensivlashtirishga yo'naltirilgan mezon va natijaviy bloklarining uzviyligi nazariya va amaliyotning birligini ta'minlash hamda dasturiy maqsadlarga ustuvorlik berish orqali takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati kasbiy ta'lim tashkilotlarida maxsus fanlarni o'qitishda "Flipped classroom", "3D metodi", "Aql charxi", "Tasavvur", "Dekompozitsiya", "Assotsiatsiya", "SCAMPER" metodlaridan foydalanish bo'yicha kollaborativ amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqilganligi, "CLOTHING" nomli mobil ilova yaratilganligi, o'quvchilarda kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga qarartilgan topshiriqlar majmuasi, yengil sanoat yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik fanlardan texnik atamalar glossariysi hamda kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi funksional baholash mezonlari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kasbiy ta'limda maxsus fanlarni o'qitishda o'quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishni nazariy jihatdan asoslash, pedagogik shartlari va metodikasini ishlab chiqish hamda tajriba-sinov yo'li bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

kasbiy ta'limda maxsus fanlarni o'qitishda kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarining yo'nalishlari belgilangan va maxsus fanlarni o'qitishda "Erkaklar kiyimini tikish texnologiyasi", "Bolalar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish" va "Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanmalari, o'quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan mashg'ulotlarning dars ishlanmalari ishlab chiqilib, ta'lim jarayonida amalda qo'llanilgan. Maxsus fanlarda "Flipped classroom", "3D metodi", "Aql charxi", "Tasavvur", "Dekompozitsiya", "Assotsiatsiya", "SCAMPER" metodlaridan foydalanish bo'yicha kollaborativ amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2025 yil 14 iyuldag'i 02/01-01-279-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar kasbiy ta'limda maxsus fanlarni o'qitishda kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarining yo'nalishlari belgilangan, kasbiy ta'lim tashkilotlarida maxsus fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

o'quvchilarning tasavvur-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan uslubiy tavsiyalar, takomillashtirilgan integrativ o'qitish tamoyillari va metodikasiga doir uslubiy ko'rsatmalar, jumladan, yengil sanoat yo'nalishi bo'yicha

mutaxassislik fanlardan texnik atamalar glossariysi, mavzular uchun topshiriqlar, savollar majmuasi ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan, shuningdek, “Yengil sanoat yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislik fanlaridan texnik atamalar glossariysi elektron dasturi”, “Erkaklar kiyimini tikish texnologiyasi” fanidan elektron darslik hamda “GLOTHING” nomli mobil ilova o‘quv jarayoniga tadbiq etilgan. (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2025 yil 14 iyuldaggi 02/01-01-279-son ma‘lumotnomasi). Mazkur o‘quv-metodik ta’minot o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazildi.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 29 ilmiy-metodik ishlar nashr etilgan bo‘lib, jumladan, 3 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta uslubiy qo‘llanma, Intellektual mulk agentligi tomonidan 3 ta mualliflik guvohnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini shop etish uchun tavsija etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan 3 tasi xorijiy va 9 tasi Respublika jurnallarida shop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, olingan natjalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natjalarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, e’lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari**” deb nomlanib, ushbu bobda kasbiy ta’lim tashkilotlarida maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishning kasbiy, metodik va motivatsion jihatlari, maxsus fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonining innovatsion komponentlari (yengil sanoat yo‘nalishlari misolida) va o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish shart-sharoitlari va imkoniyatlari yoritib berilgan. Tadqiqot mavzusiga oid pedagogik, psixologik va texnik adabiyotlar tahlil qilinib, kasbiy ta’lim tashkilotlarida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida yengil sanoat yo‘nalishlari birituvchilarida “Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi” fani bo‘yicha kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari, yondashuvlar tahlili, rivojlantirish omillari o‘rganilgan va mavjud muammolar aniqlangan.

Dissertatsiyaning ushbu bobida kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishning aniq tavsifi mavjud

emasligi sababli, mahalliy va horijiy olimlarning ko‘plab ishlarida “tasavvur”, “fazoviy tasavvur”, “grafik kompetensiyalar”, “fazoviy tasavvur kompetensiyasi”, “kommunikativ kompetensiya” tushunchalarining turli hil talqinlari tafsilotlari keltirilgan.

Bugungi kunda yengil sanoat yo‘nalishi bo‘yicha zarur kompetensiyalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash maqsadga muvofiq sanalib, sohadagi tezkor texnologik o‘zgarishlar, innovatsion materiallar va raqamli ishlab chiqarish jarayonlari mutaxassislarning nafaqat texnik, balki kreativ va kommunikativ ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni talab qiladi. Zamonaviy mutaxassis o‘z ish faoliyatida ijodiy yondashuv, jamoaviy muloqot, muammolarni hal etish va yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtira olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Katta hajmdagi loyihalarda dizaynerlar, texnologlar, dasturchilar hamda kontent yaratuvchilar o‘zaro yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Bunday jamoaviy ish samaradorligi, avvalo, barcha ishtirokchilarning bir xil kasbiy til va tushunchalar tizimiga ega bo‘lishiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, dizaynerlar o‘z g‘oya va tasavvurlarini nafaqat vizual obrazlar orqali, balki jamoa a‘zolari uchun tushunarli bo‘lgan texnik va kasbiy terminlar yordamida ifodalay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu terminlardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish mutaxassisning tasavvurida shakllangan modelni texnik yechimga, kommunikativ strategiyaga, mantiqan izchil matn va vizual materialga aylantirish imkonini beradi. Natijada, jamoa a‘zolari o‘rtasida noto‘g‘ri talqinlar kamayadi, ish jarayonida kelishmovchiliklar oldi olinadi va loyiha sifatli hamda o‘z vaqtida amalga oshiriladi. Demak, mutaxassislarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyasi uning professional faoliyatida muhim omil bo‘lib, turli mutaxassislar bilan samarali hamkorlikni ta’minlaydi hamda kompleks loyihalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyasiga quyidagicha mualliflik ishchi izoh berildi.

Kommunikativ-tasavvur kompetensiya - bu ishlab chiqarish jarayonida texnologlar, dizaynerlar, konstruktorlar va buyurtmachilar bilan samarali muloqot qila olish, texnologik g‘oyalarni tasavvur asosida loyihalash, ijodiy va innovatsion yechimlar ishlab chiqish, hamda jamoa bilan hamkorlikda kompleks loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyatlarini majmuidir.

“Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi” fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Tikuv buyumlarini tayyorlashda ular uchun qo‘llaniladigan materiallarning fizik-mexanik, gigiyenik va ekspluatatsion xususiyatlarini hisobga olish hamda ularning kelajakda foydalanish jarayonida prognostik xulosalar bera olish.
2. Tikuv buyumlarini texnologik jarayonga tayyorlash uchun ularning uzellariga ishlov berish tartiblarini belgilashda kiyimning har bir uzelida ishlov berishning o‘ziga xosligini fazoviy jihatdan uzel qirqimlarida aks ettirishni tasavvur qila olish.
3. Andaza tuzish, bichish va tikish bosqichlarida buyum detallari o‘zaro qanday uyg‘unlashishini oldindan tasavvur qilish orqali texnologik xatolarning oldini olish va ishlab chiqarish sifatini oshirish.

4. Kiyim konstruksiyasidagi o‘zgarishlar (model, fason, detal shakli) texnologik jarayonga qanday ta‘sir ko‘rsatishini tasavvur qilish orqali mos texnologik yechimlarni tanlash.

5. Tasavvurga tayangan holda texnologik jarayonlar, buyum konstruksiysi va ishllov berish ketma-ketligini aniq va tushunarli tarzda og‘zaki izohlab bera olish, kasbiy terminlardan o‘rinli foydalanish


6. Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan texnologik muammolarni muhokama qilish, o‘z fikrini asoslash va muqobil yechimlarni taklif etish orqali jamoada samarali muloqot qilish

7. Tayyor mahsulot yoki texnologik jarayon natijalarini taqdim etish, himoya qilish va baholash jarayonida o‘z tasavvuriga tayangan holda kasbiy fikr almashish madaniyatini rivojlantirish (1-rasm).

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish shart-sharoitlari va imkoniyatlari aniqlandi.

Biz tomondan ajratib olingan birinchi pedagogik shart o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishga urg‘u berilib yo‘naltirilgan ijodiy muhitni maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida shakllantirilishi hisoblanadi. Mazkur shartning mazmuni o‘quvchilarni erkin fikrlashga, yangi g‘oyalilar yaratishga, buyum va detallarni fazoda ko‘ra olishga, ularning shakl, o‘lcham va konstruktiv elementlarini fikran tasavvur qila olishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratishni talab etadi.

O‘quvchilarning fazoviy tasavvurini shaklantrish jarayonini tashkil qiladigan ilmiy-uslubiy ta‘minot ikkinchi pedagogik shartni tashkil qiladi. Mazkur shartning mazmuni o‘quvchilarda buyum, detal, shakl va konstruksiyalarning fazoviy xususiyatlarini ongda tasavvur qila olish, ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘ra bilish, texnologik jarayonlar modelini fikran yaratish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodik resurslarni yaratishni nazarda tutadi.



### 1-rasm. Kommunikativ-tasavvur kompetensiya tuchunchasining mazmuni

Tadqiqotimizning uchinchi pedagogik sharti bevosita ta’lim jarayoni subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik samaradorligiga qaratilgan bo‘lib, u o‘qituvchidan yuksak darajadagi psixologik va metodik tayyorgarlikni talab etadi. Mazkur

shartning konseptual mohiyati shundaki, pedagog shunchaki axborot yetkazuvchi emas, balki ta'lim oluvchilarining yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari hamda kasbiy intilishlarini chuqur his qiluvchi moderator sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Pedagogik jarayonni boshqarish biz tomonidan ajratib ko'rsatilgan keyingi to'rtinchı pedagogik shart hisoblanadi. Ushbu shartning mohiyati ta]lim jarayonini tizimli ravishda rejalashtirish, maqsadga yo'naltirish, nazorat qilish va natijalarni tahlil etish orqali o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishga erishishdan iboratdir.

Maxsus fanlar blokiga kiruvchi "Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi" fani o'quvchilarda kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini shakllantirishda ulkan pedagogik salohiyatga ega. Mazkur fanni o'qitish jarayonida quyidagi ustuvor imkoniyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdur. Bular, fan mazmunining amaliy-konstruktiv xarakteri, interaktiv hamkorlik muhiti, vizualizatsiya vositalarining keng qamrovligi, amaliy faoliyat ustuvorligi, kreativ salohiyatni ro'yobga chiqarish, raqamlı texnologiyalar integratsiyasi. Bu imkoniyatlar o'quvchilarining fazoviy tasavvurini vizual texnologiyalar yordamida boyitish va zamonaviy kommunikativ kompetensiyalarini egallashlarida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.


Dissertatsiyaning **Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarining kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni va metodikasi** deb nomlangan ikkinchi bobida maxsus fanlarni o'qitishda o'quvchilarining kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini kollaborativ texnologiyalar asosida rivojlantirish modeli va metodikasi, kasbiy ta'lim tashkilotlarida maxsus fanlarni o'qitishda o'quvchilarining kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini baholashning avtomatlashtirilgan funksional tizimi yoritilgan. Shuningdek, kasbiy ta'lim tashkilotlarida maxsus fanlarni o'qitish uchun mo'ljallangan mobil ilova ("Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi" fani misolida) ishlab chiqilgan.

Hozirgi paytda o'quv dasturlariga yangi axborot texnologiyalari va kompyuter texnikalarining qo'llanilish sohalari bilan tanishtiruvshi ko'plab fanlar kiritilgan. Ularni o'zlashtirish davomida o'quvchilar kompyuterlarning ta'lim, iqtisod va muhandislik ishlarida qo'llanilishi, matematik modellashtirish, avtomatlashgan o'quv-axborot tizimlari hamda ish o'rinalarda foydalanish tartibi, mehnat tavsifi va unumdarligini oshirishdagi ahamiyati bilan tanishadilar. Bunda o'quvchilar mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisi faoliyatida kompyuterlarni qo'llash tartibini ma'lum ma'noda o'zlashtirsalarda, uni bugungi kun talabi darajasida deb bo'lmaydi, zero u zamonaviy ta'lim sharoitida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yetarli emas.

Mobil ilovalar orqali fanlarni o'rganish nisbatan yangi usul bo'lib, bugungi kunda mashhurlik kasb etmoqda. Zamonaviy mobil qurilmalarning texnik xarakteristikalari, ya'ni qurilmalar uchun yaratilgan maxsus ilovalar va veb-saytlar yordamida ta'lim oluvchilar uchun masofaviy ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.

Bugunga kelib yuqorida ta'kidlangan mobil ilovalar turlarini kuzatadigan


bo‘lsak, aynan mutaxassislikka doir mobil ilovalar kam. Shu maqsadda yengil sanoat yo‘nalishi o‘quvchilari uchun “Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi” fanidan “Clothing” nomli mobil ilova ishlab chiqildi va ushbu ilovaga guvohnoma olindi. Bu ilova o‘quvchilarni mutaxassislikni chuqur o‘zlashtirishlari uchun, mustaqil ravishda bilimlarini sinash uchun, fanga doir ma’lumotlar olish uchun keng miqyosdagi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, “Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi” fanidan turli assortimentdagi tikuv buyumlariga ishlov berish texnologiyasini o‘rgatadi. Mobil ilovada ayollar, erkaklar va bolalarning turli assortimentdagi kiyimlarga ishlov berish ketma ketligi va asosiy uzellariga ishlov berish sxemalari keltirilgan bo‘lib, bu ilovadan mustaqil ishlarni bajarishda, fan bo‘yicha kurs ishi, diplom loyihibalarini bajarishda, amaliyot davrida foydalanishlari mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘zlariga kerak bo‘lgan tikuv buyum turini tanlashlari va uning tikish texnologiyasi va asosiy uzellarga ishlov berish sxemalarini ko‘rishlari mumkin. Shuningdek, ketma – ketlik asosida berilgan assortimentni tikish imkoniyatiga ega bo‘ladilar (2-rasm)



**2-rasm. Mobil ilovaning ko‘rinishi va QR kodi**

Zamonaviy ta’lim sharoitida kasbiy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislik fanlarni o‘qitishda aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanish orqali o‘quvchilarning mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatda qo‘llay olishiga hamda malakali kichik mutaxassislarni iste‘molchilar talablariga ko‘ra tayyorlashga erishish mumkin (3-rasm). Ishlab chiqilgan mobil ilova ham aynan aralash ta’lim texnologiyasini tashkil qilishga xizmat qiladi.

Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish, ularda fazoviy tasavvur va konstruktiv fikrlash qobiliyatini tizimli rivojlantirish, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida “Flipped classroom”, “3D metodi”, “Aql charxi”, “Tasavvur”, “Dekompozitsiya”, “Assotsiatsiya”, “SCAMPER” metodlardan foydalanish yuqori pedagogik samaradorlik kasb etadi.



**3-rasm. Pedagogik texnologiya asosida o'qitishning mazmuni va maqsadi**

“Dekompozitsiya” metodi. Dekompozitsiya – bu murakkab muammo yoki mahsulotni kichik, sodda qismlarga ajratish orqali uni tahlil qilish va yaxshiroq tushunish usulidir. “De” – ajratish, “kompozitsiya” – tuzilma degan ma’noni anglatadi. Pedagogik amaliyatda ushbu yondashuv “Ajratable – O’rganable – Yangidan yarat” konseptual tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bunda o’quvchilar tayyor buyum tasvirini vizual va konstruktiv tahlil qilib, uning detallarini alohida o’rganadilar va pirovardida, o‘z ijodiy tasavvurlariga tayangan holda buyumni yangicha dizayn va texnologik yechimda qayta loyihalaydilar. Bu jarayon nafaqat nazariy va amaliy bilimlarning integratsiyasini ta’minlaydi, balki o’quvchilarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, nostandard qarorlar qabul qilish hamda jamoaviy ijodkorlik ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o’zlashtirilayotgan yangi bilimlarni mustahkamlash va ularni uzoq muddatli xotiraga o’tkazishda «Assotsiatsiya» metodi (lot. associatio – bog’lanish) alohida ahamiyatga ega. Ushbu metodning didaktik funksiyasi shundaki, u yangi va murakkab axborotni o’quvchining xotirasida mavjud bo’lgan avvalgi bilimlar, hayotiy tajriba yoki tanish obrazlar bilan mantiqiy bog’lash orqali “kodlashtirish” imkonini beradi. Ta’lim jarayonida assotsiativ bog’lanishlarning o’rnatalishi o’quvchilarning mantiqiy tafakkurini charxlaydi, mavhum tushunchalarni aniq tasavvur etishga yordam beradi va ma’lumotlarni eslab qolish samaradorligini oshiradi. Bu usulda o’qituvchi yangi tushunchani o’quvchilarga taqdim etadi, o’quvchi bu tushunchani biror tanish narsa, so‘z, shakl, rang, harakat yoki his bilan bog’laydi, shu orqali bilim xotirada kuchliroq saqlanadi.

“Aql charxi” metodi — bu mnemonikaga asoslangan metod bo’lib, o’tilgan mavzuga oid ma’lumotlarni rangli geometrik shakllar orqali ketma-ketlikda eslab

qolishga xizmat qiladi. Ushbu metod o‘quvchilarning nafaqat xotira va tasavvurini, balki kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Metod jarayonida o‘qituvchi shaklli kartochkalarni ma’lum ketma-ketlikda ko‘rsatadi, o‘quvchi esa shakl va undagi ma’lumotni og‘zaki ravishda aniq, izchil va tushunarli qilib bayon etadi. Natijada o‘quvchilarda ma’lumotni eslab qolish, uni ketma-ketlikda ifodalash, fikrni to‘g‘ri va ravon yetkazish ko‘nikmalari shakllanadi.


Tasavvur metodi - bu o‘quvchilarning ongida predmet yoki jarayonning obrazini shakllantirish, ularni ko‘rishesiz holda “ko‘z oldiga keltirish” orqali fikrlashga undovchi ta’lim usulidir. Mazkur metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkur, tahliliy yondashuv hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan prognoz qilish va hal etish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

SCAMPER metodi - bu ijodiy fikrlash va innovatsion g‘oyalarni yaratish uchun mo‘ljallangan metod bo‘lib, mavjud narsalarga boshqacha nigoh bilan qarash orqali yangilik kiritishga yordam beradi.

*Kollaborativ o‘qitish.* Bu usulda o‘quvchilar birgalikda ishlaydi va o‘zaro fikr almashadi (4-rasm). Bu orqali:


jamiyatda muloqot qilish ko‘nikmalari rivojlanadi;  
muammoni hal qilish uchun turli fikrlar va yondashuvlar birlashtiriladi;  
o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadi va o‘z fikrlarini ifodalashni o‘rganadi.

O‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishda kollaborativ texnologiyalarni qo‘llash, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘quvchilar bir-biri bilan hamkorlikda ishlashni, fikr almashishni va birgalikda o‘rganishni o‘rganadilar. Bularning barchasi, albatta, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlari va shaxsiy hayotlarida muhim rol o‘ynaydi.



#### 4-rasm. Kollaborativ o‘qitishning afzalliklari

Tadqiqot muammosining nazariy va amaliy g‘oyalariga tayangan holda kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni maqsadli, funksional mazmunli va natijaviy bloklardan tashkil topgan modeli ishlab chiqildi. (5-rasm).



5-rasm. O‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Maqsadli blok DTS va malaka talablariga javob beradigan mehnat bozorida raqobatbardosh kompetentli muhandisalrni tayyorlashga qaratilgan. Funktsional-mazmuniy blok o‘quv jarayonining amaliy mexanizmini belgilaydi. Bu blok maxsus fanlar asosida ta’lim mazmunini integratsiyalashgan holda tashkil etishni ko‘zda tutadi. U quyidagi o‘quv faoliyati turlarini qamrab oladi: og‘zaki va yozma kommunikatsiyani rivojlantirish (fikrni aniq, mantiqli bayon etish), texnologik jarayonlarni modellashtirish va grafik ifodalash, loyihami va ijodiy faoliyatni tashkil etish, muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. Ushbu bosqichda ta’lim jarayoni bir qolipdagi dars o‘tish metodidan chekinib, mantiqiy, vizual, semantik va ijodiy modellar uyg‘unlashgan ko‘p tarmoqli tizimga aylanadi. Bu yondashuvning eng muhim jihatni shundaki, u o‘quvchining nafaqat aqliy, balki hissiy va amaliy faoliyatini bir vaqtning o‘zida qamrab oladi. Modellarning har biri aniq vazifani bajaradi: masalan, vizual modellashtirish va ijodiy xarakterdagi topshiriqlar o‘quvchining tasavvur olamini faollashtirsa, semantik modellar fikrni aniq va ravon ifodalash, ya’ni nutqiy kompetensiyani charxlashga xizmat qiladi. Mazkur jarayon shunchaki topshiriq bajarish bilan cheklanmaydi. Auditoriyada jamoaviy hamkorlik, o‘z pozitsiyasini dalillar bilan himoya qilish va erkin fikr almashish muhiti shakllanadi. Aynan mana shunday jonli jarayon kompetensiyaviy yondashuvning amaldagi in’ikosi bo‘lib, u o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatni rasmiyatchilikdan samimiylari, refleksiv hamkorlikka aylantiradi.

Natijaviy blok modelning yakuniy bosqichi bo‘lib, unda o‘quvchilarda shakllangan kompetensiyalarini baholash mezonlari va darajalari aniqlanadi. Baholash uch bosqichli produktiv, motivatsion va kreativ tizim asosida amalga oshiriladi.

Taklif etilayotgan modelning ilmiy-nazariy ahamiyati kommunikativ va tasavvur kompetensiyalari alohida-alohida emas, balki yagona didaktik tizim doirasida rivojlantiriladi. Bu yondashuv o‘quvchiga o‘z g‘oyasini nafaqat verbal (so‘z) orqali, balki vizual obrazlar va texnik chizmalar tilida ham ravon ifodalash imkonini beradi. Nutq va texnik tafakkurning bunday sintezi ushbu modelni mavjud an’anaviy o‘qitish konsepsiyalardan jiddiy farqlab turadi. Shuningdek, maxsus fanlarni (Tikuv buyumlarini tikish texnologiyasi) o‘qitish bir nechta komponentlarga ajratiladi. Bular: tahlil qilish va taqqoslash ko‘nikmasini rivojlantirish; onglilik va kuzatuvchanlikni o‘rgatish; mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini shaklantrish; o‘xshashliliklarni ko‘rish va chizish ko‘nikmasini shaklantrish, o‘z nuqtayi nazarini tushunish va asoslash, o‘z fikr mulohazalarining bilan bahslashish, o‘rganilgan materialni birlashtirish; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; yangi bilimlarni birlashtirish; ma‘lum bir hodisa yoki vizuallashtirish obyekti haqida olingan ma’lumotni yaxlit manzarasi bilan bog‘lashga yordam beradi.

Dissertatsiya tadqiqot ishining uchinchi bobiga “O‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tajriba-sinov ishlari va tahlili” deb nomlanib, unda pedagogik tajriba-sinov ishlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi, shuningdek, kasbiy ta’lim tashkilotlarida maxsus fanlarni

o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari keltirib o‘tilgan.

Kasbiy ta’lim o‘quvchilarining kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlanganligi baholash mezonlari, asosan, kreativ, motivatsion, produktiv mezon ko‘rsatgichlari bo‘yicha Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Bog‘ot yengil sanoat texnikumi, Buxoro Davlat texnika universiteti huzuridagi Vobkent sanoat va transport texnikumi, Toshkent shahar dizayner va texnologlarni tayyorlash texnikumida 2021-2022, 2022-2023, 2023-2024 o‘quv yillarida pedagogik tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarida 387 nafar respondentlar ishtirok etdi.

Quyida aks etgan baholash mezonlari asosida o‘quvchilarning kommunikativ-tasavvur kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida ularning kasbiy faoliyatga oid tushunchalarni bilishi va ularni boshqa tushunchalar bilan bog‘lay olishi, kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlarni o‘qituvchi yordamisiz, ammo onlayn berilgan yo‘riqnomalar asosida mustaqil bajara olishi ta‘minlandi. Shuningdek, o‘quvchilarda kasbiy faoliyatni yaratishga bo‘lgan yuqori qiziqish shakllandi, berilgan vazifalarni yuqori saviyada bajarish hamda kasbiy faoliyat jarayonida o‘z ijodiy salohiyatini faollashtirish qobiliyati rivojlandi. Natijada ularning tasavvurdan samarali foydalanish ko‘nikmalari mustahkamlanib, innovatsion hamkorlik asosida zarur tayanch kompetensiyalar rivojlantirildi.

